

RUS VA O'ZBEK TILLARINING GRAMMATIK JIHATDAN TAQQOSLANISHI

**Musurmonova Dinora O'tkir
qizi**

Samarqand davlat chet-tillar instituti

Sharq tillari fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Xolmuradova Nigora Faxridinovna

Anontatsiya: Til-har bir xalqning tarixi, madaniyati va taffakurini aks ettiruvchi asosiy vositadir. U xalqning dunyoqarashi, taffakuri va urf-odatlarini aks ettirib, uning madaniy merosi sifatida xizmat qiladi. Rus va o'zbek tillari ham turli xil oilalarga mansub bo'lsa-da, tarixiy va ijtimoiy omillar tufayli ular orasida ma'lum darajada o'xshashlik va farqlar shakllangan. Maqolada har ikkala tilning fonetik, morfologik va sintaktik jihatdan o'xshash hamda farqli tomonlari o'rganilib, o'zaro o'xshashlik hamda lingvistik farqlar misollar orqali yoritiladi. Qolaversa, ushbu tillarni o'rganish jarayonida uchraydigan grammatik qiyinchiliklar ham tahlil qilinadi.

Annotation: Language is the main tool that reflects the history, culture, and thinking of every nation. It embodies the worldview, thinking, and traditions of a people, serving as a part of its cultural heritage. Although the Russian and Uzbek languages belong to different language families, historical and social factors have led to certain similarities and differences between them. This article examines the phonetic, morphological, and syntactic similarities and differences of both languages, highlighting these aspects through examples. Additionally, the grammatical challenges encountered during the learning process of these languages are analyzed.

Kalit so'zlar: urg'u, undoshlar, kelishiklar, времени, fe'l, suffikslar, rod kategoriyalari, rivojlantirish.

Rus tili dunyodagi eng keng tarqalgan tillardan biridir. Dunyo bo'ylab bu tilda taxminan 250 million kishi so'zlashadi. Rus tili hind-yevropa tillari oilasining slavyan tillari guruhiga, aniqrog'i, sharqiy slavyan tillar guruhiga mansub. U ukrain va belarus tillari bilan yaqin qarindosh til hisoblanadi. Shu jumladan o'zbek tili oltoy tillari oilasining turkiy tillar guruhiga ya'ni qarluq shaxobchasiga mansub bo'lib, uyg'ur va uyg'ur-chor tillari bilan til jihatdan yaqinlikka egadir. Bu ikkala til oilalari o'rtasida ilmiy jihatdan tasdiqlangan geneologik yoki etipologik bog'liklik yo'q bolsada, rus va o'zbek tili asosan tarixiy omillar sabab bir-biriga grammatik, lingvistik jihatdan katta ta'sir o'tkazgan. Sovet davrida majburiy rus tili ta'limi maktab va oliy ta'lim muassasalarida asosiy fanlardan biri sifatida o'qitilgan. Bu esa o'zbek tiliga rus tilidan texnika, siyosat, fan-madaniyat va kundalik hayot bilan bog'liq juda ko'p so'zlar kirib kelishi asosiy omil bo'lgan.

Eng avvalo, ikkala tilning alifbosidagi farq va o'xshashliklar e'tiborni tortadi. O'zbek va rus tillarida jarangli va jarangsiz undoshlar o'xshash xususiyatga ega bo'lib, ikkala tilda ham b, v, g, d, z, y, jarangli undosh, p, f, k, t, sh, s esa jarangsiz undoshlar hisoblanadi. Ikkala tilda "b-p" "d-t" "g-k" kabi jarangli va jarangsiz undosh juftliklari mavjud. Rus tilida so'z oxirida yoki boshqa holatlarda jarangli undoshlar jarangsizlanishi mumkin. Masalan, "пыр" so'zining oxiridagi [r] tovushi talaffuzda "k" kabi eshitiladi. Demak, rus tilida jarangli undoshlarning jarangsizlanishi qat'iy fonetik qoidalariga asoslanadi. O'zbek tilida esa so'z oxiridagi jarangli undoshlar o'z shaklini saqlaydi. Ba'zi dialektlar yoki shevalarda "kitob" sozining "kitop" tarzida yoki "hisob" so'zining "hisop" kabi talaffuz etilishi kuzatiladi. Biroq bu o'zbek tili grammatikasining rasmiy fonetik qonuniyatlariga xos emas.

Rus tilida urg'u o'zgaruvchan hisoblanadi ya'ni doimiy emas. So'zning shakli o'zgarganda uning urg'usi boshqa bo'g'inga ko'chishi mumkin. Bu hodisa urg'u almashinuvi (Перемещение ударения) deb ataladi. Bunga misol qilib otda urg'u ko'chishini olishimiz mumkin. Masalan, pyka (qo'l)-pyki (qo'llar). Bunda pyka birlikda kelgani sababli urg'u "a" ga tushyapdi, pyki so'zi ko'plikda kelgani sababli

esa urg`u “и” ga tushyapdi. Sifatlarda ham urg`u o`zgarishi kuzatiladi . Богатый (boy) Богатый (boyilar). Shunday qilib , bu hodisa grammatik shakl o`zgarganda yoki turdosh so`zlar yasalishida juda ko`p uchraydi. Ayniqsa, yuqorida misol qilib ko`rsatganimizdek otlarda, sifatlarda, fe`llarda urg`u ko`chib yuradi. Rus tilini o`rganayotgan yangi o`quvchilar ham birinchi galda urg`u joylashuvini yaxshiroq o`rganishlari juda muhimdir. Negaki, urg`uni o`rganmasdan boshqa grammatik qoidalarga o`tish mushkul. O`zbek tilida urg`u qat`iy tartibga ega va doim so`zning oxirgi bo`giniga tushadi. Bu bilan aytishimiz mumkinki, o`zbek tilida urg`u barqarordir. Masalan , oyna-oylalar bu so`zlarda urg`u “a” va “r” tovushlariga tushgan.

Rus tili grammatikasida кто? (kim) savoliga javob bo`lib , одушевлённый otlar qatoriga barcha tirik mavjudotlar kiradi. O`zbek tilida esa kim? savoliga javob bo`lib одушевлённый otlar qatoriga faqat inson kiradi.

Yana shuni aytib o`tishimiz lozimki o`zbek tilida mavjud bo`lgani kabi rus tilida ham ma`no ko`chishi bor. Ularni turlariga xuddi o`zbek grammatikasi kabi ma`no ko`chishining metafora , metonimiya, sinekdoxa kabi turlari bor.

Ularning vazifalarida ham deyarli farq yo`q. Metafarada o`xshashlik asosida ma`no ko`chadi. Золотые руки (oltin qo`llar) juda moxir qo`llar ma`nosida. Metonimiya aloqadorlik asosida ma`no ko`chadi. Весь зал аплодировал (butun zal qarsak chaldi) ya`ni zalda o`tirgan odamlar ma`nosida. Sinekdoxa butun va qism o`rtasidagi aloqa asosida ma`no ko`chadi. Все обсуждали Пушкина (butun zal Pushkinni muhokama qildi.) bunda Pushkinning shaxsi emas balki uning ijodi nazarda tutiladi .Bu hodisalar o`zbek va rus grammatikasida deyarli bir xil vazifani bajarganligi bois o`zbek tiliga misol keltirishning hech zarurati yoq.Faqat bu yerda kichik bir farq shundaki ,rus tilida ma`no ko`chishi ko`p qo`llaniladi va matbuotda ,nutqda faol ishlatiladi.O`zbek tilida esa metafora xalq maqollarida qo`llaniladi.Qolgan ma`no ko`chishining ikki turi-metonimiya va sinekdoxa biroz kamroq qo`llaniladi.

Kelishik shakllariga ham to'xtalib o'tsak, ismlarni boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiluvchi qo'shimchalar kelishik shakllari sanaladi. Bu qoida nafaqat o'zbek tiliga balki rus tili grammatikasiga ham tegishli hisoblanadi. O'zbek tilida 6ta kelishik shakli mavjud xuddi rus tilida bo'lgani kabi. O'zbek tilidagi bosh kelishigi rus tilidagi именительный падеж (Nominativ kelishik)ga mos keladi. Ikkala kelishik ham kim?(кто?) nima? (что?) so'roqlariga javob bo'ladi. Qolgan kelishiklar : qaratqich- родительный падеж, дательный падеж, tushum-винительный падеж, o'rin-payt- предложный падеж lar ham bazi bir farqlarni hisobga olmaganda deyarli bir xil vazifani bajaradi. Faqat, chiqish kelishigi va творительный падеж bir biriga o'xshamaydi. Negaki, rus tilida творительный падеж harakat vositasini, kasbni, yoki kim bilandir birgalikni bildiradi. O'zbek tilida bu holatlar uchun bilan yoki -lik, -chi qo'shimchalari ishlatiladi. O'zbek tilidagi chiqish kelishigi esa asosan joy yoki manba bildirish uchun qo'llanadi. Qolaversa o'zbek tilidagi chiqish kelishigi faqat ajralish, sabab bildiradi. Rus tilidagi творительный падеж esa vosita yoki usulni bildiradi. Shuning uchun ular bir-biriga tog'ri kelavermaydi.

Rus tilidagi fe'llarda ko'pincha old qo'shimchalar mavjud bo'lib, ular o'zi qo'shilayotgan fe'lning ma'nosini o'zgartirib yuboradi yoki to'ldiradi. O'zbek tilida esa fe'llarda old qo'shimcha yo'q, lekin ot turkumidan sifat yasash uchun ba'zi old qo'shimchalar uchraydi va ular ham juda kam sonli. Писать(yozmoq) -написать(yozib bo'lmoq) , ходить(yurmoq)- приходиться(kelmoq) давать(bermoq) -предавать(uzatmoq). Bu misollarda ko'rinib turibdiki, -на, -при, -пере, kabi old qo'shimchalar fe'lga qo'shilganda uning ma'nosi o'zgarib ketadi. O'zbek tilida fe'l yasash yoki fe'lning ma'nosini o'zgartirish uchun old qo'shimchalar ishlatilmaydi. Uning ma'nosini yoki shaklini faqat qo'shimchalar, ikki fe'l birikishi va turli ko'makchilar orqali o'zgarishi mumkin. Misol uchun: qo'shimchalar yordamida; yoz-yozish. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'zbek tilida mavjud bo'lgan old qo'shimchalar fe'lga emas balki ot va sifat yasashga ishlatiladi. Masalan: 1) be-(ma'nosi yo'qlikni bildiradi) befarq, betashvish. 2) no-(salbiy

ma'noda)no'to'g'ri, noxush.3)ba-(ko'proq arapcha va forsha so'zlarda uchraydi,umumlashtiruvchi va ma'noni kuchaytirishni bildiradi)bamisoli,badavlat.

Rus tilidagi fe'llar leksik ma'nosi bo'yicha 2 darajada namoyon boladi. Действительный va страдательный залог.Ко'pchilik o'quvchilar yoki talabalar Ослабленная степень (kamaytiruvchi daraja)ni ham mustaqil daraja deb o'ylab,rus tilida fe'llar 3 xil darajada ifodalanishini ifodalashadi.Biroq bu kamaytiruvchi daraja mustaqil daraja emas ,balki orttirma darajaning bir turi hisoblanadi.U fe'lning bajarilish kuchi yoki davomiyligi pasayganini ifodalaydi.O'zbek tilida esa fe'llarda darajalar soni 5ta hisoblanadi.Aniq ,o'zlik,majhul,orttirma va birgalik darajalari.

Rus tilida 3ta zamon bor hamda mana shu 3ta zamon ham bir-biridan qo'shimchalar orqali farqlanadi.Rus tilida 3ta zamon bo'lsa ham ,faqat ikkitasida fe'l qo'shimchasi 2xil turga bo'linadi.Birinchisi o'tgan zamon(Прошедшее время)-bu zamonda fe'l jins va son boyicha o'zgaradi.Ikkinchisi hozirgi-kelasi zamon (Настоящая- Будущее время)-bu zamonda esa fe'l ikki xil so'z o'zgartirish tizimiga ega.O'zbek tilida esa zamonlar bir-biridan suffikslar va yordamchi so'zlar bilan farqlanadi.Qo'shimchalar ham xuddi rus tiliniki kabi 2xil bo'ladi.Birinchisi, -dim,-ding,-di,-dik,-dingiz,-dilar.Ikkinchisi,-man,-san,-di,-miz,-siz,-dilar.Bu qo'shimchalar qisman o'tgan zamonda suffikslardan keyin qo'shiladi.Kelasi zamonda ham har bir fe'lga qo'shiladi.O'tgan zamonda qo'llaniladigan –gan edi,-ar edi, -gan emish,-gan ekan kabi fe'llarda qo'shimcha yordamchi felga o'tadi.

O'zbek va rus tili ortasidagi yana bir muhim farq shundaki,rus tilida otlarning rod kategoriyasi mavjud.Rod-rus tilidagi otlarning muhim grammatik kategoriyalaridan biri bo'lib ,so'zlarning rodi gap ichidagi boshqa sozlar bilan moslashuvini belgilaydi.Rod fe'l zamonlari,sifat,olmosh va sonlarning shakliga tasir qiladi.Rus tilida 3ta grammatik rod mavjud мужской, женской средний род.O'zbek tilida esa rod kategoriyasi mavjud emas.O'zbek tili rodga bog'liq grammatik ajratishga ega bo'lmagan tillardan biri hisoblanadi.O'zbek tilida bazan женской rodni bildiruvchi

qo'shimchalar uchraydi. Masalan: muallima, Kamolova, Musurmonova kabi. Bu hodisalar rod kategoriyasi deb emas balki morfologik o'zgarish hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkimki, rus va o'zbek tillari grammatik jihatdan ham o'xshash ham farqli jihatlarga egadir. Rus tili flektiv, o'zbek tili esa agglutinativ til hisoblanadi. Shu sababli, ikkala tilning bir-biridan sezilarli darajada farqli va ularning grammatik tizimdagi umumiy jihatlari yetarlicha ko'p. Bu jihatlarni chuqur o'rganish madaniy bog'liqlikni yaxshiroq tushunishga, til tizimini o'rganishga va kommunikatsiyani osonlashtirishga yordam beradi. Tilshunoslik bo'yicha shu kabi ilmiy izlanishlarni olib borish, rus va o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish universal lingvistik qonuniyatlarni tushunish uchun ham xizmat qiladi. Ayniqsa, O'zbekiston hududida rus tilida keng muloqot qilinadi, shu sababli ham ikki tilli muloqot qobiliyati ko'plab sohalarda foydali bo'lishi mumkin. Misol uchun: texnika, biznes va savdo, tibbiyot, huquq kabi. Ta'lim va ilm-fan sohasida ham ko'plab darsliklar maqolalar hamda ilmiy adabiyotlar rus tilida yozilganligi bois, bu tilda so'zlashish va matnlarni tushunish juda muhim ahamiyatga ega. Boshqa tilda qanday grammatik qoidalar borligini bilish orqali o'zbek tili grammatikasining o'ziga xos jihatlarni tuahunish imkoniyati tug'uladi. Bu esa nafaqat lingvistik bilimni oshiradi balki yozish va nutq madaniyatini ham rivojlanishiga katta turtki bo'ladi. Umuman olganda, rus va o'zbek tillarining farqini va uyg'un tomonlarini o'rganib, tahlil qilib chiqish nafaqat ilmiy jihatdan balki amaliy hayotimizda ham juda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Talipova R.T. Rus Tilining Amaliy Grammatikasi (2019)
2. Т.Т. КЕЛЬДИЕВ УЧЕБНИК РУССКОГО ЯЗЫКА
- 3 В.М. ВАХРИДДИНОВА HOZIRGI O'ZBEK TILI (2020)
- 4 Ю. С. МАСЛОВ Д.Н. ШМЕЛЕВ РУССКАЯ ГРАММАТИКА
5. М. Mirtojiev, Sh. Rixsieva - "Hozirgi o'zbek adabiy tili"

6. N. Mahmudov, Sh. Nurmonov - "O'zbek tilining grammatikasi

7. <https://staff.tiame.uz>(<https://staff.tiame.uz/>)

University Profile System